

XALQ HOKIMIYATCHILIGI KONSTITUTSIYAVIY- HUQUQIY KAFOLATLARINING NAZARIY – HUQUQIY ASOSLARI

Uktamov Husan

uktamovhusan04@gmail.com

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakulteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19809911>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq hokimiyatchiligi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda amalga oshirilishini ta'minlovchi kafolatlar tizimi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalq hokimiyati prinsipi demokratik davlatning asosiy belgisi sifatida ko'rib chiqilib, uning normativ-huquqiy mustahkamlanishi va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish shakllari, saylov tizimi, referendum institutlari hamda vakillik organlari faoliyati orqali xalq irodasining ifodalanishi tahlil etiladi. Maqolada konstitutsiyaviy kafolatlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Xalq hokimiyatchiligi, elektron demokratiya, xalq suvereniteti, siyosiy plyuralizm, kompromiss va konsensus, «Mening fikrim» portali.

PEOPLE'S POWER: THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF CONSTITUTIONAL-LEGAL GUARANTEES

Abstract. This article examines the essence and content of the concept of people's power, its constitutional and legal foundations, as well as the system of guarantees ensuring its implementation from a theoretical perspective. The principle of people's power is considered as a key feature of a democratic state, and its normative-legal consolidation and practical mechanisms are analyzed. The article also explores the forms of citizens' participation in public administration, the electoral system, referendum institutions, and the expression of the people's will through representative bodies. In addition, proposals and conclusions aimed at improving the effectiveness of constitutional guarantees are put forward.

Keywords: People's power, electronic democracy, popular sovereignty, political pluralism, compromise and consensus, "My Opinion" portal.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bobi «Xalq hokimiyatchiligi» deb nomlanib, mamlakatimiz konstitutsiyaviy tuzumining fundamental asosi hamda xalq suverenitetining huquqiy ifodasi hisoblanadi¹. Ushbu bobning 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, bu prinsip davlat organlari faoliyatining xalq irodasiga muvofiqligini hamda ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaviy normalarga ko'ra, davlat hokimiyati faqat xalq manfaatlarini ko'zlab hamda Konstitutsiya va qonunlar bilan vakolat berilgan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, qonunchilikda hokimiyat vakolatlarini o'zlashtirish, muvoziy (parallel) boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish konstitutsiyaga xilof va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat sifatida malakalanishi, xalq hokimiyatchiligini himoya qilishning muhim kafolatidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

Xalq hokimiyatchiligi murakkab konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita (referendum va saylovlar orqali) hamda vakillik organlari (Oliy Majlis va Prezident) orqali ishtirokini nazarda tutadi². Zamonaviy huquqiy doktrinada jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini belgilovchi uchta asosiy mezon alohida ajratib ko'rsatiladi:

1. Fuqarolarning davlat qarorlari qabul qilinishi jarayonidan xabardorligi (shaffoflik prinsipining amal qilishi)³;
2. Hukumat faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjudligi;
3. Oddiy fuqarolarning davlat boshqaruvida, jumladan «elektron demokratiya» mexanizmlari orqali real ishtirok etish darajasi.

Yuridik adabiyotlarda xalq hokimiyatchiligi tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, u nafaqat hokimiyatning manbai, balki inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi, davlatni xalq irodasiga bo'ysundiruvchi dinamik tizim sifatida ham tadqiq etilmoqda⁴.

Ta'kidlash kerakki, xalq hokimiyatchiligi printsiplari asosiy ustuvor qoida tariqasida aksariyat demokratik davlatlarning Konstitutsiyalarida o'z aksini topgan. Misol uchun, Frantsiya Konstitutsiyasining 3-moddasi, Germaniya Asosiy qonunining 20-moddasi, Finlandiya Konstitutsiyasining 2-moddasi mazkur printsiplarga bag'ishlangan bo'lib, ularda davlat hokimiyati to'raligicha xalqdan kelib chiqishi, xalq hokimiyatchiligi saylovlar, referendumlar hamda davlat hokimiyati organlari orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Xalq hokimiyati tushunchasini anglatgan demokratiya haqida so'z ketganda A.A.Azizxo'jaevning ta'kidlashicha, "Demokratiya tushunchasini har kim o'zi xohlagan mazmun bilan to'ldirdi, unda o'zi ko'rishni istagan narsani ko'rdi. Kimdir demokratiyani o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul xalqning hokimiyati deb bilsa, yana kimdir uni ko'chada mitinglar, namoyishlar, to'stopolonlarning ko'pligi bilan o'lchaydi"⁵. A.Leypxartning ta'kidlashicha, "Demokratiya – biror bir ta'rifga qat'iy bo'ysunmaydigan tushunchadir"⁶.

Xalq hokimiyatchiligi tushunchasiga quyidagicha nazariy ta'rif berish maqsadga muvofiq:

"Xalq hokimiyatchiligi – davlat hokimiyatini xalq yoki ular vakillari orqali bevosita yoxud bilvosita qonunlarda belgilab qo'yilgan qonuniy shakllarda shakllantirish, saylash va boshqarishda ishtirok etishidir". Bizningcha, davlat hokimiyati bo'linish printsiplari xalq hokimiyatchiligining alohida belgisi bo'lishi mumkin. Biroq ushbu printsiplarning mavjudligi xalq hokimiyatchiligining barcha muhim belgisini qamrab olmaydi. Boshqa bir guruh olimlar xalq hokimiyatchiligining belgisi sifatida "xalq suvereniteti"ni ajratib ko'rsatar ekanlar, bunda "xalq suvereniteti" kontseptsiyasining mazmuni yuqori hokimiyatni ifodalashga qodir bo'lgan haqiqiy ijtimoiy manfaatlarni aniqlash imkoniyatini berishni nazarda tutishini qayd etadilar⁷.

² O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida (yangi tahriri) : O'zbekiston Respublikasining Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-81253#-81372>.

³ Jamoatchilik nazorati to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining 12.04.2018-yildagi O'RQ-474-sonli Qonuni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>.

⁴ Зенин С. С. Народовластие в конституционной системе демократического государства // Актуальные проблемы российского права. 2015. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/narodovlastie-v-konstitutsionnoy-sisteme-demokraticeskogo-gosudarstva> (дата обращения: 30.03.2026).

⁵ Азизхўжаев А.А. Амал учун кураш васвасаси // Халқ сўзи, 2001 йил, 24 август.

⁶ Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах. Сравнительное исследование. – Москва, 1997. – С.38.

⁷ Медушевский А. Демократия и авторитаризм: российский конституционализм в сравнительной перспективе. М.: РОССПЭН, 1998, с. 29.

Ayni paytda xalq suvereniteti ham xalq hokimiyatchiligining muhim belgisi bo'lishi bilan birga xalq hokimiyatchiligining barcha institutlarini qamrab ololmaydi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, ayrim olimlar "xalq suvereniteti" tushunchasi "xalq tomonidan o'z hokimiyatini bevosita amalga oshirishi" tushunchasining qonunda mustahkamlangan shakli sifatida qayd etib, bunda suverenitet hokimiyat ustunligini nazarda tutishini bunday sifatlarga faqatgina davlat hokimiyati egalik qilishini hamda davlat hokimiyati bo'lgan joyda faqatgina xalq suvereniteti emas balki, davlat suvereniteti bo'lishi mumkinligini o'z navbatida esa, agar xalq "suverenitet tashuvchisi" bo'lsa, bunda davlat yoki suveren hokimiyat tashkiloti bo'lishi yoki ikki mustaqil suverenitet: davlat va xalq suvereniteti mavjudligini qayd etadilar⁸.

Bizningcha, xalq hokimiyatchiligining belgilari bevosita Konstitutsiyaning "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlangan bobida belgilangan normalardan kelib chiqadi. Bunda xalq hokimiyatchiligining belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xalqning davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo'lishi;
- davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi;
- jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yilishi;
- xalq nomidan faqat u saylagan organlarning ish olib borishi mumkinligi;
- davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanishi;
- ijtimoiy hayotning siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi;
- davlatda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi;
- davlatda demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi;
- davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshirishi.

Huquqshunos D.Axmedov hozirda demokratik tizimlar bir-biridan ancha farq qilishini ta'kidlar ekan, ularda taraqqiyotning quyidagi umumiy asoslari mavjudligini qayd etadi:

1. Inson huquqlarini tan olish va xalqaro andozalar miqyosida ro'yobga chiqarish;
2. demokratik huquqiy va dunyoviy davlat printsiplarini amalga oshirish;
3. Konstitutsiyaning ustuvorligi;
4. ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm, ekstremizmning siyosiy, diniy va boshqa turlariga suyanmaydigan, jamiyatda ijtimoiy, milliy va diniy dushmanlik urug'ini sochmaydigan siyosiy partiyalar faoliyatining erkinligi;
5. hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi printsipi davlat hokimiyati faoliyat ko'rsatishning qat'iy chegaralanganligi;
6. fuqaroning davlat oldida davlatning esa fuqaro oldida majburiyatlarga ega ekanligi;

⁸ Starck Ch. Vorrang der Verfassung und Verfassungsgerichtsbarkeit // Verfassungsgerichtsbarkeit in Westeuropa / Hrsg. von Ch.Starck u. A.Weber. Baden Baden, 1986. P. 11-40

7. kelishuv, kompromiss va konsensus siyosiy-huquqiy mexanizmining mavjudligi;
8. ijtimoiy nizolarning oldini olishning, barqarorlik va milliy kelishuvni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmning mavjudligi;
9. fuqarolarning siyosiy jarayondagi faol ishtiroklari va davlat hokimiyatining oliy idoralari hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari shakllanishida saylovchilarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi⁹.

Yangi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy qiyofasida xalq hokimiyatchiligi «davlat — inson uchun» degan g'oyaviy transformatsiya asosida yangi bosqichga ko'tarilmoqda¹⁰.

Konstitutsiyaning 54-moddasiga muvofiq, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir, barcha davlat organlari faoliyati aynan shu maqsadga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda xalq hokimiyatchiligi fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini nafaqat an'anaviy saylovlar, balki quyidagi zamonaviy institutlar orqali ham kafolatlamoda:

- Jamoatchilik nazorati: Konstitutsiyaning 36-moddasida fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi qat'iy belgilab qo'yilgan. Bunda fuqarolar, mahalla organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari nazorat subyektlari sifatida ishtirok etib, davlat apparati hisobdorligini ta'minlaydi.

- Elektron demokratiya: «Mening fikrim» portali kabi raqamli platformalar xalqning qonunlar muallifi va manbai bo'lishi haqidagi konstitutsiyaviy prinsipni real hayotga tatbiq etmoqda. Bunday vositalar aholining eng muhim muammolari bo'yicha jamoaviy murojaatlar yo'llash va ularni parlament darajasida hal etish imkonini yaratdi¹¹.

- Mahalla — jamiyat tayanchi: Islohotlar natijasida mahalla jamoatchilik va davlat organlari o'rtasidagi «tayanch ko'pri»ka aylantirildi. U davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmagan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etuvchi noyob institut sifatida xalq irodasini quyi bo'g'inda amalga oshiradi.

O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligi — bu o'tmishdagi barqaror huquqiy poydevor (tadrijiy rivojlanish) va kelajakka yo'naltirilgan demokratik islohotlarning (raqamlashtirish va shaffoflik) uzviy uyg'unligidir. Demokratiya umuminsoniy prinsiplarga tayangan holda, inson sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat darajasiga ko'tarmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu strategik yo'l jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, fuqarolarning daxldorlik hissini oshirishga va Yangi O'zbekistonda xalqni davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi haqidagi qoidani amalda ta'minlashga xizmat qiladi. xalq hokimiyatchiligi demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uning samarali amal qilishi mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar tizimiga bevosita bog'liqdir. Xalq irodasining erkin ifodalanishi, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtiroki hamda saylov va referendum kabi institutlarning to'laqonli ishlashi ushbu tamoyilning amaliy ifodasini ta'minlaydi.

⁹ Ахмедов Д.Қ . Конституция ва халқ ҳокимиятчилиги. Маъсул муҳаррир А.Х. Саидов – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.- 8 б.

¹⁰ 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

¹¹ К нормотворчеству — с научным подходом // Веб-портал «Mening fikrim». URL: <https://petition.gov.uz/ru/news/view/289>.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy normalarning hayotda to'liq amalga oshirilishi uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda huquqiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday sharoitda xalq hokimiyatchiligi prinsipi real mazmun kasb etib, davlat va jamiyat rivojining barqaror asosiga aylanadi, jigarim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida (yangi tahriri) : O'zbekiston Respublikasining Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-81253#-81372>.
3. Jamoatchilik nazorati to'g'risida : O'zbekiston Respublikasining 12.04.2018-yildagi O'RQ-474-sonli Qonuni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>
4. Зенин С. С. Народовластие в конституционной системе демократического государства // Актуальные проблемы российского права. 2015. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/narodovlastie-v-konstitutsionnoy-sisteme-demokraticeskogo-gosudarstva> (дата обращения: 30.03.2026).
5. Парламент назорати самарадорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари (илмий-амалий, услубий қўлланма) / Масъул муҳаррир ю.ф.н. Ф.Э.Мухамедов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти, 2012. – 45 бет.
6. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Тошкент. ТДЮИ, 2005 й. – 124 б.
7. Азизхўжаев А.А. Амал учун кураш васвасаси // Халқ сўзи, 2001 йил, 24 август.
8. Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах. Сравнительное исследование. – Москва, 1997.
9. –С.38.
10. 9.Медушевский А. Демократия и авторитаризм: российский конституционализм в сравнительной перспективе. М.: РОССПЭН, 1998, с. 29.
11. Starck Ch. Vorrang der Verfassung und Verfassungsgerichtsbarkeit // Verfassungsgerichtsbarkeit in Westeuropa / Hrsg. von Ch.Starck u. A.Weber. Baden Baden, 1986. P. 11-40
12. Аҳмедов Д.Қ . Конституция ва халқ ҳокимиятчилиги. Маъсул муҳаррир А.Х. Саидов – Т.: ТДЮИнашриёти, 2005.- 8 б.
13. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
14. К нормотворчеству — с научным подходом // Веб-портал «Мening fikrim». URL: <https://petition.gov.uz/ru/news/view/289>.